«OCTO RESTART» MAHSULOT PASPORTI

1. UMUMIY SHARTLAR	
Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	"Octobank" AJ www.octobank.uz +998 71 202 33 33 O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100021, Furqat ko‘chasi, 2.
Kredit mahsulotining nomi	«Octo Restart»
Kredit maqsadi	Uchinchi banklarning amaldagi kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun
Kredit turi	Mikroqarz
Foiz stavkasi	Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish qo’mitasi tomonidan belgilangan stavkaga muvofiq
Kredit muddati	60 oygacha
Kredit summasi	4 000 000 so‘mdan 100 000 000 so‘mgacha. Kredit summasiga qaror qabul qilingan sanadagi qayta moliyalashtirilayotgan kredit bo‘yicha asosiy qarz qoldig‘i va hisoblangan foizlar kiritiladi. Kreditni so‘ndirish uchun mijozning tranzit hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilgan sanadan boshlab, qayta moliyalashtirilayotgan kredit bo‘yicha barcha pul majburiyatlari to‘liq hajmda bajarilgan sanagacha hisoblangan foizlar Qarz oluvchi tomonidan to‘lanadi.
Berish tartibi	Bank tomonidan kredit summasini uchinchi bankdagi kreditni so‘ndirish uchun mijozning tranzit hisobvarag‘iga o‘tkazish orqali.
Kredit shakli	Qayta tiklanmaydigan
Kredit valyutasi	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so‘m
Imtiyozli davr	Taqdim etilmaydi
Kreditni so‘ndirish usuli	Annuitet/differensial to‘lovlar
Qarz oluvchi to‘lovlarining davriyligi	Har oyda, so‘ndirish jadvaliga muvofiq
Muddatidan oldin so‘ndirish	Ruxsat berilgan (qo‘shimcha to‘lovsiz)
Sotuv kanallari	➢ bank bo‘linmalari ➢ bankning rasmiy sayti ➢ bankning mobil ilovasi ➢ qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa kanallar.
2. QARZ OLUVCHIGA/BIRGALIKDA QARZ OLUVCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR	
Qarz oluvchi	Jismoniy shaxs/o‘zini o‘zi band qilgan shaxs – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti
Ro‘yxatdan o‘tish	Ro‘yxatdan o‘tishga bo‘lgan talablar Bankning skoring modeli bilan belgilanadi.
Yosh	Kredit shartnomasi tuzilgan vaqtda 18 yoshdan 60 yoshgacha (shu jumladan)
Qarz yuki	Qarz yuki ko‘rsatkichi qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi kerak

Qarzning daromadga nisbati koʻrsatkichi	Qarzning daromadga nisbati koʻrsatkichi qonunchilik talablariga muvofiq boʻlishi shart.
Daromadni aniqlash	- Ariza topshirilgan sanadan boshlab kamida oxirgi 6 oy davomida doimiy daromad manbaining mavjudligi; - ish joyidan berilgan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma (kamida 6 oy ishlagan boʻlishi sharti bilan). 6 oy mobaynida daromad olishda 1 oydan oshmagan muddatga tanaffus boʻlishiga yoʻl qoʻyiladi, bunda ushbu davrda ish beruvchi Qarz oluvchining ish oʻrnini (lavozimini) saqlab qolgan boʻlishi shart. Ushbu tanaffus oyi hisob-kitobdan chiqarib tashlanmaydi; - pensiya miqdori toʻgʻrisidagi maʼlumotlar; - SHJBPHga ajratmalar miqdori toʻgʻrisidagi maʼlumotlar; - olingan foizlar, dividendlar, ijara toʻlovlari va boshqa doimiy daromad manbalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar. Bank qarz oluvchining oʻrtacha oylik daromadlarini aniqlashda qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlardan va/yoki oʻz axborot tizimlaridan olingan maʼlumotlardan, kredit byurosi taqdim etadigan axborotdan, shuningdek boshqa rasmiy manbalardan foydalanadi. Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar boʻyicha daromadga oid talablar OʻzR qonunchiligi va Bankning skoring modeli bilan belgilanadi.
Birgalikda qarz oluvchi	3 nafargacha shaxsni jalb qilishga ruxsat etiladi
3. TA'MINOT	
Kredit ta'minoti	Bank kredit summasining 50 foizi miqdorida kreditni qaytarmaslik boʻyicha moliyaviy xatarlarni sugʻurta qiladi. Kreditning qolgan qismi ishonch asosida (taʼminotsiz) beriladi. Bankka aloqador shaxslar uchun taʼminotga qoʻyiladigan talablar Bankning kredit siyosati asosida belgilanadi.
4. ZARUR HUJJATLAR	
Oʻzbekiston fuqarosi pasporti / ID-kartasi	
Zarurat tugʻilganda, bank kredit arizasini koʻrib chiqish va keyinchalik kreditni rasmiylashtirish uchun qoʻshimcha hujjatlarni soʻrashi mumkin.	
5. QOʻSHIMCHA MA'LUMOT	
Muddati oʻtgan qarzdorlik qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) nomiga, shu jumladan, boshqa banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlardan akseptsiz tartibda yechib olinadi.	
Kredit boʻyicha asosiy qarzni soʻndirish muddatlari buzilgan taqdirda, muddati oʻtgan qarzdorlikning haqiqiy qoldigʻiga yillik 50,00% miqdorida foiz stavkasi hisoblanadi.	
Imtiyozli dasturlar doirasida ajratilgan kreditlar, kredit kartalari va overdraftlar qayta moliyalashtirilmaydi.	
Kreditor bankda 1-sifat toifasiga ega boʻlgan kreditlar qayta moliyalashtiriladi.	
Kreditdan maqsadli foydalanilganlikni tasdiqlash muddati – kredit berilgan paytdan boshlab 20 kalendar kuni	